



**AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI IJTIMOIIY HAYOTGA
MOSLASHISHIDA BAJARILAYOTGAN ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR.**

Mamatkulova Lobar Tolibjonovna-

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası p.f.b.f.d, PhD

[*lobarmamatkulova1982@gmail.com*](mailto:lobarmamatkulova1982@gmail.com)

Keldiyorova Sevinch Chori qizi-

[*sevinchkeldiyorova05@icloud.com*](mailto:sevinchkeldiyorova05@icloud.com)

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus pedagogika, defektologiya

(logopediya) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektr buzilishining hozirgi kunda butun dunyo miqyosida keng tarqalgan nevropsixologik sindromlardan biri ekanligi yoritilgan. Unda autizm tashxisiga ega bolalarning psixologik-emotsional holati, ularda kuzatiladigan kommunikativ muammolar, stereotip harakatlar, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va tashqi muhitga munosabatdagi o'ziga xos xususiyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy inklyuziv ta'lim talablari asosida bunday bolalarni jamiyatga moslashtirish, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish, xulq-atvoridagi stim va cheklovlarni yumshatish bo'yicha qo'llaniladigan psixologik, pedagogik va defektologik yondashuvlar bayon etilgan. Maqolada qo'llanilayotgan maxsus terapiya usullari — xulq-atvor terapiyasi, sensor integratsiya, nutq-terapiya, ABA terapiya, ART, TEACCH texnologiyalari hamda individual pedagogik yondashuvlarning samaradorligi misollar orqali ko'rsatib berilgan. Tadqiqotning nazariy va amaliy jihatlari autizm sindromli bolalarning tashqi muhit bilan aloqa qilishdan qochishi, o'z nuqtai nazarini boshqalar bilan



moslashtira olmasligi, shuningdek, muloqot jarayonidagi o'zgarishlar sabablari bilan bog'liq holda ochib berilgan. Xulosa sifatida, autizm tashxisli bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik qo'llab-quvvatlanishi va ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi uchun psixolog, logoped-defektolog, reabilitolog va ota-onalar tomonidan doimiy ravishda tizimli mashg'ulotlar tashkil etilishi lozimligi ta'kidlanadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что расстройства аутистического спектра являются одним из наиболее распространённых нейropsychологических синдромов в мире. Анализируется психологическое и эмоциональное состояние детей с данным диагнозом, их коммуникативные трудности, стереотипные движения, особенности социального взаимодействия и отношение к окружающей среде. Кроме того, в статье освещаются современные подходы к социальной адаптации таких детей на основе принципов инклюзивного образования, формирование их социальных навыков, а также методы коррекции поведенческих стимулов и ограничений с использованием психологических, педагогических и дефектологических технологий. Рассматриваются особенности и эффективность применения специальных терапевтических методов — поведенческой терапии, сенсорной интеграции, логопедических занятий, АВА-терапии, технологий ТЕАССН, а также индивидуальных педагогических подходов. Теоретические и практические аспекты исследования раскрывают причины стремления детей с аутизмом избегать контакта с окружающими, сложности в адаптации и особенности восприятия ими социальных ситуаций. В заключение подчёркивается, что успешная социализация, психологическая поддержка и интеграция детей с аутизмом в образовательный процесс требуют систематической работы психологов, логопедов-дефектологов, реабилитологов и постоянного участия родителей.



Annotation: This article examines autism spectrum disorder (ASD) as one of the most widespread neuropsychological conditions in the world today. It analyzes the psychological and emotional state of children diagnosed with ASD, their communicative difficulties, stereotypical behaviors, challenges in social adaptation, and unique responses to external stimuli and the surrounding environment. Furthermore, the article highlights modern approaches to facilitating the social integration of children with ASD in accordance with inclusive education principles, the development of their social skills, and the reduction of behavioral stimuli and limitations through psychological, pedagogical, and defectological interventions. Specialized therapeutic methods—including behavioral therapy, sensory integration, speech therapy, ABA therapy, TEACCH technologies, and individualized pedagogical approaches—are examined in terms of their application and effectiveness. The theoretical and practical aspects of the research also reveal the underlying reasons for children with autism avoiding social contact, difficulties in adapting to social settings, and their distinctive way of perceiving and interpreting surrounding events. In conclusion, the article emphasizes that successful socialization, psychological support, and integration of children with ASD into educational processes require systematic work carried out by psychologists, speech therapists, special educators, rehabilitation specialists, and continuous involvement of parents.

Kalit so'zlar: autizm, tashqi muhit, terapiya, individual, sensor integratsiya, ijtimoiylashuv, jamiyat, muloqot, logoped-defektolog, psixolog, ko'nikma, reabilitolog, tizimli mashg'ulotlar, pedagogik yondashuv, terapiya.

Ключевые слова: аутизм, внешняя среда, терапия, индивидуальный подход, сенсорная интеграция, социализация, общество, коммуникация, логопед-дефектолог, психолог, навык, реабилитолог, систематические занятия, педагогический подход, терапия.



Keywords: autism, external environment, therapy, individual approach, sensory integration, socialization, society, communication, speech therapist-defectologist, psychologist, skill, rehabilitation specialist, systematic training, pedagogical approach, therapy.

Bolalarda autizm — bu ma'lum aqliy va neyropsixologik funksiyalarning rivojlanishidagi nogironlik bilan bog'liq bo'lgan murakkab holat bo'lib, tashqi dunyo bilan ijtimoiy munosabatlarda turli qiyinchiliklar, stim odatlari, muloqotda sustlik va xulq-atvordagi o'ziga xos xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. Autizm spektr buzilishida bolaning nutqida kechikish, ko'z bilan aloqa o'rnatmaslik, bir xil harakatlarni qayta-qayta bajarish, sensor ta'sirlarga haddan tashqari sezgirlik yoki aksincha, indifferentlik kuzatiladi. Bu holat ko'pincha 3–4 yoshgacha bo'lgan bolalarda tashxislanadi, biroq ayrim og'ishlarning dastlabki belgilari hayotning birinchi yilidayoq sezilishi mumkin. Masalan, chaqaloqning kulmasligi, atrofdagilarga befarqligi, muloqotga ehtiyoj sezmasligi yoki tovushlarga javob bermasligi autizmning ilk belgilaridan bo'lishi mumkin. Vaqtida aniqlash va erta aralashuv bolaning kelajakdagi rivojlanishida juda muhim ahamiyatga ega. Autizm uchun universal, hammani birdek davolash imkoni yo'q. Mutaxassislar har bir bemor uchun individual yondashuv asosida maxsus terapiya dasturlarini ishlab chiqadilar. Bunlarga ABA terapiya, sensor integratsiya, logopedik mashg'ulotlar, xulq-atvor terapiyasi, TEACCH dasturi, art-terapiya hamda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kiradi. Bularning barchasi bolaning ehtiyojlari, kognitiv holati va rivojlanish darajasiga qarab moslashtiriladi.

Autizmli bolalar o'quv jarayonida alohida qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning holati dars jarayonlarining borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchilar, psixologlar va logoped-defektologlar tomonidan mashg'ulotlar bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etiladi. Har bir mashg'ulot ma'lum maqsadga yo'naltiriladi: diqqatni jamlash, nutqni rivojlantirish,



mustaqillikni oshirish, ijtimoiy moslashuv va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish. Shuningdek, ota-onalar ham bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Uy sharoitida qo'llab-quvvatlash, mustahkam reja va kundalik rejimga rioya qilish, bolaning qobiliyatlarini to'g'ri baholash va rag'batlantirish natijalarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Autizmli bolalarda rivojlanish jarayonining o'ziga xosligi shundaki, ularning kognitiv faoliyati ko'pincha notekis rivojlanadi: ayrim funksiyalar sust bo'lsa, ayrimlari juda kuchli bo'lishi mumkin. Masalan, ayrim bolalarda mantiqiy fikrlash yoki yodlash qobiliyati yuqori bo'ladi, biroq nutqni tushunish yoki muloqotga kirishishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat autizmni "nuqson" emas, balki noyob neurologik rivojlanish turi sifatida ko'rishga undaydi. Autizmning sabablarini aniqlash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda uning kelib chiqishiga genetik omillar, miya rivojlanishidagi o'zgarishlar, sensor axborotni qayta ishlash tizimidagi buzilishlar sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, autizm yuqumli emas va u ota-onaning tarbiyasi yoki xatoliklari natijasi emas.

Autizmli bolalarda ko'pincha sensor sezgirlik buzilishi uchraydi. Bu shuni anglatadiki, ular tovush, yorug'lik, teginish yoki hidlarni boshqalarga qaraganda kuchliroq yoki sustroq idrok qilishi mumkin. Masalan:

- baland tovushlardan qo'rqish,
- yorqin chiroqlardan bezovta bo'lish,
- kiyim taglari yoki matolarni yoqtirmaslik,
- muayyan hid va ta'mga haddan tashqari his-tuyg'u. Shu sababli sensor integratsiya terapiyasi muhim o'rin egallaydi.



Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bu bolalar uchun eng muhim vazifalardan biridir. Oddiy bolalar tabiiy ravishda taqlid orqali o‘rganishsa, autizmli bolalarda bu jarayon sun’iy ravishda, maxsus metodlar orqali o‘rgatiladi. Masalan:

- ijtimoiy hikoyalar
- rolli o‘yinlar
- vizual jadval va belgilar
- guruh mashg‘ulotlari

Kichik muvaffaqiyatlarni ham rag‘batlantirish bolada o‘ziga ishonchni kuchaytiradi. Shuningdek, autizmli bolalarda nutq va muloqot ikki turda buzilishi mumkin:

1. Ekspressiv nutq buzilishi — gapirishda qiyinchilik
2. Retseptiv nutq buzilishi — eshitgan nutqni tushunmaslik

Ba’zi bolalarda nutq to‘liq rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Bunday holatda alternativ kommunikatsiya usullari qo‘llanadi:

- piktogrammalar
- imo-ishora
- vizual kartalar
- elektron kommunikatsiya qurilmalari

Bu esa ularni jamiyatdan ajratmaydi, aksincha tushunishni osonlashtiradi.

Autizmli bolalar bilan ishlashda quyidagi tamoyillar samarali:

- qat’iy va barqaror kundalik rejim



- vizual ko'rsatmalar
- kichik bosqichlarda o'rgatish
- rag'batlantirish
- individual yondashuv

Pedagog va defektologning asosiy vazifasi bolaning kuchli tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirishdir. Ba'zan autizmlı bolalar matematika, san'at, musiqada katta iqtidor ko'rsatishi mumkin. Jamiyatda inklyuziv ta'limni joriy etish, tenglashtirilgan sharoit yaratish, ota-onalarni psixologik qo'llab-quvvatlash — autizmlı bolalar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. To'g'ri muhit, tushunish va sabr yordamida ular mustaqil hayotga tayyorlana oladilar. Inklyuziv ta'lim autizmlı bolalarning tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu nafaqat bilim olishni, balki ijtimoiy ko'nikmalar, kommunikativ malakalar, mustaqil fikrlash va o'ziga ishonchni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi bola imkoniyatlarini cheklamasdan, aksincha, rivojlanish salohiyatidan to'liq foydalanishdir. Ta'lim jarayonida;

- o'quv dasturlari moslashtiriladi,
- vizual ko'rsatmalar qo'llaniladi,
- qo'llab-quvvatlovchi pedagoglar jalb qilinadi,
- sensor tanaffuslar tashkil etiladi,
- mashg'ulotlar individual yondashuv asosida olib boriladi.

Autizmlı bolalar ko'pincha ijtimoiy muloqotdan qochadi, ko'z bilan aloqa o'rnatishda qiynaladi, rolli o'yinlarni tushunmaydi va jamoadagi o'z o'rnini aniqlashda muammolarga duch keladi. Shuning uchun ijtimoiy moslashuv dasturlari



— ularning hayot sifatini yaxshilash, jamoadan ajralib qolishining oldini olish va kelajakda mustaqil yashash imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhimdir. Bunday dasturlar salomlashish, muloqot boshlash, navbat kutish, yordam so‘rash, qoidaga rioya qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Inklyuziv muhitda o‘qish autizmli bolalarga tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamiyat qoidalarini o‘rganish va real hayotdagi vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, sog‘lom bolalar orasida bag‘rikenglik, empatiya, mehr-oqibat va insonlar orasidagi farqlarni qabul qilish kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Bu jamiyatda nogironligi bor shaxslarning chetlanishi va stigmatizatsiyasining oldini olishda muhim o‘rin tutadi. Autizmli bolalarning ijtimoiy moslashuvi faqat maktabdagi ta‘lim bilan cheklanmaydi. Reabilitolog, psixolog, logoped-defektolog, ota-onalar bilan olib boriladigan doimiy mashg‘ulotlar ham muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta‘lim jarayonida oilaning ishtiroki bolaning holatini yengillashtiradi, o‘zini yanada ishonchli his qilishiga yordam beradi va psixologik barqarorlikni ta‘minlaydi.

Defektolog-logopedning asosiy maqsadi autizmli bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olib, nutq va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish va inklyuziv ta‘lim jarayonida samarali ishtirokini ta‘minlashdir. Mutaxassis nafaqat nutqni to‘g‘rilash bilan shug‘ullanadi, balki bolaning psixologik barqarorligi, emotsional holati va jamiyatga integratsiyasiga ham bevosita hissa qo‘shadi. Defektolog-logopedning autizm sindromidagi bolalar bilan ishlashda asosiy maqsadi nutq va muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, individual yondashuvni ta‘minlashdan iborat bo‘ladi. Har bir autistik bolani holatidan kelib chiqib alohida individual bo‘lgan mashg‘ulotlar olib borilganidan so‘ng kutiladigan natijalar esa quyidagilardan iborat bo‘ladi;

- nutqiy kamchiliklar kamayadi yoki bartaraf etiladi



- muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi
- bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi
- inklyuziv ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishadi
- jamiyatga moslashuv yaxshilanadi.

Autizm spektr buzilishi (ASB) bolalarning rivojlanishida murakkab va ko'p qirralik holat bo'lib, nutq, muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar va xulq-atvorda turli darajadagi cheklovlar bilan namoyon bo'ladi. Ushbu holat bolaning jamiyat bilan muloqot qilishini, tengdoshlari bilan ijtimoiylashuvini va ta'lim jarayonida faol ishtirokini qiyinlashtiradi. Shu sababli, autizmli bolalar uchun maxsus pedagogik yondashuv, individual terapiya va qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi. Autizmli bolalarni rivojlantirishda defektolog-logoped, psixolog va reabilitologlarning roli katta ahamiyatga ega. Ular bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olib, nutq va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi, xulq-atvordagi stimllarni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim va ota-onalar hamkorligi bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi va o'z-o'zini ifoda etish qobiliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, autizm murakkab, ammo to'g'ri yondashuv orqali boshqarilishi mumkin bo'lgan holatdir. Tizimli individual terapiya, inklyuziv ta'lim va maxsus pedagogik qo'llab-quvvatlash autizmli bolalarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi va kelajakda mustaqil hayotga tayyorlanishiga yordam beradi. Shu tariqa, har bir autizmli bola o'z salohiyatini to'liq namoyon etish va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2018
2. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014
4. Muminova L.R., Abidova N.Z., Maxsus psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013